NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TAN OLINADIGAN

XALQARO, XORIJIY VA NODAVLAT AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI

REYESTRI

2026-yil holati bo‘yicha
axborot-tahliliy sharh



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TAN OLINADIGAN XALQARO, XORIJIY VA NODAVLAT AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI REYESTRI

2026-yil holati bo‘yicha axborot-tahliliy sharh

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

I. KIRISH....3

II. REYESTRNI SHAKLLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI....5

III. AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARINI SARALASH VA REYESTRGA KIRITISH MEXANIZMLARI....7

3.1 Reyestrga kiritish shartlari....7

3.2 Ariza topshirish....8

3.3 Arizani koʻrib chiqish muddatlari....8

IV. AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA MONITORING TIZIMI....10

V. REYESTRNING JORIY HOLATI: STATISTIK TAHLIL....12

5.1 Davlatlar kesimida....12

5.2 Ixtisoslashuv yoʻnalishlari kesimida....13

5.3 Institutsional tajriba kesimida....14

VI. REYESTRDAGI TASHKILOTLARNING MILLIY AMALIYOTDAGI NATIJALARI 16

VII. REYESTRNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YOʻNALISHLARI....19

XULOSA....20

FOYDALANILGAN MANBALAR....21

1-ilova....22

2-ilova....33

3-ilova....35

I. KIRISH

Ta’lim dasturlarining xalqaro standartlar asosida baholanishi va ularning xalqaro miqyosda tan olinishi ta’lim tizimini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda xalqaro akkreditatsiya ta’lim sifatini mustaqil tashqi baholashning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tashkilotlari tomonidan xalqaro akkreditatsiyadan o‘tishga bo‘lgan qiziqish va ehtiyoj izchil ortib bormoqda. Biroq akkreditatsiya natijalarining ishonchliligi va xalqaro e’tirofi, avvalo, ushbu jarayonni amalga oshirayotgan akkreditatsiya tashkilotining nufuzi, mustaqilligi, professional salohiyati hamda xalqaro sifatni ta’minlash tamoyillariga muvofiqligi bilan belgilanadi.

Shu munosabat bilan ta’lim tashkilotlari uchun ishonchli va xalqaro maydonda tan olingan akkreditatsiya tashkilotlarini tanlash masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa akkreditatsiya tashkilotlarini baholash, tan olish va ular to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlarni tizimli ravishda shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi (keyingi o‘rinlarda – Milliy agentlik) tomonidan O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestri (keyingi o‘rinlarda – Reyestr) yuritilmoqda.

Reyestr xalqaro sifatni ta’minlash sohasida faoliyat yurituvchi akkreditatsiya tashkilotlarini belgilangan mezonlar asosida baholash, ularning faoliyatini tizimlashtirish va oliy ta’lim tashkilotlari uchun ishonchli axborot manbaini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u xalqaro akkreditatsiya jarayonlarida yagona yondashuvni ta’minlash, qarorlar qabul qilishning shaffofligini oshirish va ta’lim sifatini ta’minlash tizimining institutsional asoslarini mustahkamlashga ko‘maklashadi.

Reyestr xalqaro akkreditatsiya xizmatlari bozorida sifat talablariga javob bermaydigan yoki yetarli xalqaro e’tirofga ega bo‘lmagan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish xavfini kamaytirishga, ta’lim tashkilotlarining manfaatlarini himoya qilishga va milliy ta’lim tizimining xalqaro integratsiyasini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur sharhda Reyestrni yuritishning normativ-huquqiy asoslari, akkreditatsiya tashkilotlarini saralash va baholash mezonlari, monitoring mexanizmlari, Reyestrning amaldagi tarkibi hamda uni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari yuzasidan tahliliy ma’lumotlar keltiriladi.

II. REYESTRNI SHAKLLANTIRISHNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI

Mamlakatda xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini tan olishning yagona tizimini joriy etish maqsadida Reyestrni shakllantirishning zarur normativ-huquqiy asoslari yaratilgan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini shakllantirish va yuritishning asosiy mexanizmlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom asosida tartibga solinadi.

Mazkur hujjat bilan ta’lim tashkilotlarini kompleks (institutsional) va maxsus (dasturiy) davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini shakllantirish hamda yuritishning umumiy huquqiy asoslari belgilangan.

Shu bilan birga, Reyestrni yuritish, akkreditatsiya tashkilotlarini Reyestrga kiritish, ularning faoliyatini monitoring qilish hamda Reyestrni muntazam yangilab borish Milliy agentlik direktorining 2026-yil 27-yanvardagi 9-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini yuritish hamda ularning ta’lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini monitoring qilish tartibi to‘g‘risida nizom» (keyingi o‘rinlarda – Nizom) bilan tartibga solinadi.

Nizomga ko‘ra, akkreditatsiya tashkilotlarini Reyestrga kiritish Akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini yuritish komissiyasining qarori asosida amalga oshiriladi.

Bunda akkreditatsiya tashkilotining ushbu faoliyatni amalga oshirish bo‘yicha vakolatga egaligi, sifatni ta’minlash sohasidagi tajribasi, xalqaro sifatni ta’minlash tarmoqlariga a’zoligi, xalqaro akkreditatsiya faoliyati natijalari, ekspertlar tarkibi, shuningdek, faoliyatining O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va milliy manfaatlariga muvofiqligi hamda o‘z faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarning rasmiy veb-saytida ochiq e’lon qilinganligi asosiy baholash mezonlari sifatida e’tiborga olinadi.

Bundan tashqari, Reyestrga kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari faoliyatini muntazam monitoring qilish, Reyestr ma’lumotlarini doimiy yangilab borish va belgilangan talablarga javob bermaydigan tashkilotlarga nisbatan tegishli choralarni qo‘llash mexanizmlari ham joriy etilgan.

Mazkur tizim ta’lim tashkilotlariga xalqaro miqyosda tan olingan va ishonchli akkreditatsiya tashkilotlarini tanlash imkonini yaratadi. Bu esa xalqaro akkreditatsiya natijalarining tan olinishini kengaytirish, ta’lim sifatini tashqi baholash jarayonlarining shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash hamda O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro ta’lim makoniga integratsiyalashuvini yanada jadallashtirishga xizmat qiladi.

III. AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARINI SARALASH VA REYESTRGA KIRITISH MEXANIZMLARI

3.1 Reyestrga kiritish shartlari

Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini Reyestrga kiritish tizimi aniq belgilangan talablar va baholash mezonlariga asoslangan institutsional mexanizm hisoblanadi. Mazkur mexanizm davlat akkreditatsiyasi jarayonida ishtirok etuvchi akkreditatsiya tashkilotlarining kasbiy salohiyati, faoliyatining shaffofligi hamda xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga qaratilgan. Shu orqali Reyestrga faqat belgilangan talablarga javob beradigan, ishonchli va nufuzli akkreditatsiya tashkilotlarini kiritish ta’minlanadi.

Amaldagi tartibga muvofiq, Reyestrga kiritiladigan akkreditatsiya tashkilotlari quyidagi asosiy mezonlar asosida baholanadi:

akkreditatsiya tashkiloti sifatida faoliyat yuritish uchun tegishli vakolatga ega bo‘lishi;

xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish talablari, baholash mezonlari va tartib-taomillari O‘zbekiston Respublikasining davlat akkreditatsiyasi bo‘yicha belgilangan talablar hamda tartib-taomillarga zid bo‘lmasligi;

ta’lim sifatini ta’minlash sohasidagi xalqaro tarmoqlarning to‘la huquqli a’zosi hisoblanishi;

nufuzli xalqaro reytinglarning TOP-300 ro‘yxatiga kiruvchi kamida 5 ta oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazgan bo‘lishi;

ekspertlar tarkibining kamida 30 foizi xorijiy ekspertlardan iborat bo‘lishi;

faoliyati O‘zbekiston Respublikasining huquqiy va ma’naviy asoslariga muvofiq bo‘lishi hamda milliy qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy manfaatlarga zid bo‘lmasligi;

rasmiy veb-saytida xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilgan ta’lim tashkilotlari to‘g‘risida ochiq va dolzarb ma’lumotlarni joylashtirgan bo‘lishi.

Mazkur mezonlar xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarining institutsional salohiyati, xalqaro e’tirofi, ekspertlik imkoniyatlari, faoliyatining ochiqligi hamda milliy qonunchilik talablariga muvofiqligini kompleks baholash imkonini beradi.

3.2 Ariza topshirish

Reyestrga kiritish jarayoni, odatda, akkreditatsiya tashkilotining **yozma** yoki **elektron shakldagi murojaati** asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, barcha **belgilangan talablarga javob beruvchi** xalqaro tashkilotlar **Milliy agentlik tashabbusi** bilan ham reyestrga kiritilishi mumkin.

Arizaga tashkilotning ta’sis hujjatlari, vakolatini tasdiqlovchi hujjatlar, akkreditatsiya metodologiyasi va TOP-300 reytingidagi oliy ta’lim tashkilotlarida amalga oshirilgan akkreditatsiya natijalari bo‘yicha hisobotlar ilova qilinadi.

3.3 Arizani ko‘rib chiqish muddatlari

Arizalarni dastlabki ko‘rib chiqish Milliy agentlik tomonidan besh ish kuni davomida amalga oshiriladi. Hujjatlarda kamchiliklar aniqlanmagan taqdirda ular Komissiyaga taqdim etiladi va ariza beruvchi bu haqda xabardor qilinadi.

Kamchiliklar mavjud bo‘lsa, ularni bartaraf etish uchun kamida o‘n ish kunlik muddat beriladi va mazkur davrda arizani ko‘rib chiqish to‘xtatiladi. Belgilangan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmagan hollarda ariza rad etiladi.

Reyestrga kiritish bo‘yicha yakuniy qaror maxsus komissiya tomonidan qabul qilinadi. Komissiya Milliy agentlik direktorining buyrug‘i bilan shakllantiriladigan kamida besh nafar a’zodan iborat toq sonli tarkibga ega bo‘lib, zaruratga ko‘ra mustaqil tashqi ekspertlar ham uning faoliyatiga jalb etilishi mumkin. Manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan hollarda tegishli a’zo muhokama va qaror qabul qilish jarayonidan chetlashtiriladi.

Komissiya akkreditatsiya tashkilotining belgilangan mezonlarga muvofiqligini kompleks baholab, uni reyestrga kiritish yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Qaror **Komissiya a’zolarining kamida uchdan ikki qismi ovozi bilan qabul qilinadi, ovozlar teng bo‘lgan taqdirda esa raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.** Qaror bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi hamda hujjatlar Komissiyaga kelib tushgan kundan boshlab o‘ttiz kun ichida yakunlanishi belgilangan.

Ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda akkreditatsiya tashkiloti besh yil muddatga amal qiluvchi guvohnoma bilan ta’minlanadi va ushbu ma’lumot **Milliy agentlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi**[1].

[1] *Xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari reyestri*
URL: https://nqaae.uz/uz/international-accreditation

Aksincha, taqdim etilgan hujjatlarda noto‘g‘ri ma’lumotlarning aniqlanishi, zarur vakolatning mavjud emasligi yoki qonunchilik talablariga nomuvofiqlik reyestrga kiritishni rad etish uchun asos bo‘ladi. Reyestrga kiritish, arizani ko‘rib chiqish va guvohnoma berish jarayonlari bepul amalga oshiriladi.

IV. AKKREDITATSIYA TASHKILOTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH VA MONITORING TIZIMI

Reyestrga kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari faoliyatini muntazam baholash va monitoring qilish mazkur tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu orqali Reyestrga kiritilgan tashkilotlarning belgilangan talab va mezonlarga muvofiq faoliyat yuritishi, ularning xolisligi, shaffofligi hamda tashqi sifat baholash jarayonlarining ishonchliligi doimiy nazorat qilib boriladi.

Monitoring har uch yilda kamida bir marta o‘tkazilib, uni amalga oshirishda manfaatdor tomonlarning murojaatlari, shikoyatlari, xalqaro ekspertlar xulosalari hamda tashkilotning belgilangan standartlar, metodologiya va kasbiy etika qoidalariga rioya qilishi har tomonlama tahlil qilinadi.

Monitoring jarayonida akkreditatsiya tashkiloti tomonidan qabul qilingan qarorlarning asoslanganligi, ekspertlar tarkibining shakllantirilishi, baholash jarayonlarining shaffofligi, hisobotlarning sifati va xalqaro amaliyotga muvofiqligi ham o‘rganiladi. Bu esa akkreditatsiya jarayonlarining xolisligi va natijalarining ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Monitoring natijalariga ko‘ra kamchiliklar yoki belgilangan talablardan chetga chiqish holatlari aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo‘yicha tashkilotga yozma xabarnoma yuboriladi hamda kamchiliklarni bartaraf etish uchun kamida bir oylik muddat belgilanadi.

Ushbu muddat davomida tashkilot tomonidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi va ularning ijrosi bo‘yicha tegishli dalillar taqdim etilishi lozim. Agar belgilangan muddatda kamchiliklar bartaraf etilmasa yoki taqdim etilgan izohlar yetarli deb topilmasa, masala Komissiya muhokamasiga kiritiladi.

Reyestrdan chiqarish tartibi ham ochiqlik, shaffoflik va protsessual kafolatlar asosida amalga oshiriladi. Xususan, mazkur masala Komissiya tomonidan ko‘rib chiqilishidan kamida bir hafta oldin akkreditatsiya tashkiloti rasmiy ravishda xabardor qilinadi hamda uning vakiliga Komissiya yig‘ilishida ishtirok etish, o‘z pozitsiyasini bayon qilish va qo‘shimcha dalillar taqdim etish imkoniyati yaratiladi.

Tashkilot quyidagi hollarda Reyestrdan chiqariladi:

tugatilganda yoki o‘zining ixtiyoriy murojaatiga asosan;

korrupsiya yoki boshqa qonunga zid harakatlar sodir etilganligi aniqlanganda;

tashqi baholash hisoboti soxta yoki haqiqiy bo‘lmagan hujjatlar asosida tayyorlanganligi tasdiqlanganda;

qonunchilik talablariga zid ravishda akkreditatsiya o‘tkazilganligi aniqlanganda;

monitoring jarayonida aniqlangan kamchiliklar belgilangan muddatda bartaraf etilmaganda.

Reyestrdan chiqarish to‘g‘risida qabul qilingan qaror Milliy agentlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

V. REYESTRNING JORIY HOLATI

Hozirgi kunda Reyestrga **31 ta xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkiloti kiritilgan.** Ushbu tashkilotlar **13 ta** davlatni qamrab olgan bo‘lib, **6 ta asosiy ixtisoslashuv yo‘nalishida** faoliyat yuritadi.

Reyestrga kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari Nizomda belgilangan mezonlar asosida Komissiya tomonidan o‘rganib chiqilgan hamda ularni Reyestrga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilingan.

Bunda akkreditatsiya tashkilotlarining ta’lim sifatini ta’minlash bo‘yicha **xalqaro tarmoqlarning to‘laqonli a’zosi ekanligi, nufuzli xalqaro reytinglarning Top-300[2] taligiga kiruvchi kamida 5 ta oliy ta’lim tashkilotining ta’lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazganligi, shuningdek, rasmiy veb-saytida xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilgan ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning mavjudligi** kabi mezonlarga qat’iy rioya etilgan.

Reyestrga kiritilgan har bir akkreditatsiya tashkiloti bo‘yicha **mezonlar kesimidagi** batafsil ma’lumotlar **1-ilovada keltirilgan**.


5.1 Davlatlar kesimida

Davlatlar kesimidagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, Reyestrdagi akkreditatsiya tashkilotlarining asosiy qismi **Germaniya** (7 ta) va **Buyuk Britaniya** (6 ta) hissasiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, **Ispaniyadan 4 ta**, **Fransiya** va **AQShdan 3 tadan** akkreditatsiya tashkiloti Reyestrga kiritilgan.

Bu davlatlarning ustunligi ularda ta’lim sifatini ta’minlash tizimi uzoq yillar davomida shakllangani, akkreditatsiya tashkilotlari xalqaro miqyosda keng e’tirof etilgani hamda ENQA, INQAAHE kabi nufuzli xalqaro tarmoqlarning to‘laqonli a’zosi ekani bilan izohlanadi.

AQShdan AACSB, ABET va CAMPEP tashkilotlari Reyestrga kiritilgan bo‘lib, ular o‘z yo‘nalishida xalqaro standartlarni belgilovchi yetakchi akkreditatsiya tashkilotlari hisoblanadi.

[2] *QS Quacquarelli Symonds. QS World University Rankings.*
URL:https://www.topuniversities.com/world-university-rankings



1-rasm. Reyestrdagi akkreditasiya tashkilotlari davlatlar kesimida

Manba: muallifning Reyestr ma'lumotlari asosidagi hisob-kitoblari.

Shuningdek, **Polsha**, **Niderlandiya**, **Malayziya**, **Belgiya**, **Janubiy Koreya**, **Shveysariya**, **Portugaliya** va **Yaponiyadan 1 tadan** akkreditatsiya tashkiloti Reyestrga kiritilgan.


Osiyo mintaqasidan **Yaponiya**, **Janubiy Koreya** va **Malayziya** akkreditatsiya tashkilotlari o'rin olgan. Ularning ulushi nisbatan kichik bo'lsa-da, bu Milliy agentlikning Reyestrga turli mintaqalarda faoliyat yuritayotgan xalqaro e'tirof etilgan akkreditatsiya tashkilotlarini qamrab olishga intilayotganini ko'rsatadi.

5.2 Ixtisoslashuv yo'nalishlari kesimida

Ixtisoslashuv yo'nalishlari kesimida tahlil qilinganda, Reyestr tarkibida **umumiy yo'nalishdagi akkreditatsiya tashkilotlari** ustunlik qilmoqda.

Xususan, ularning ulushi **48,4 foizni** tashkil etadi. Shuningdek, **muhandislik**, **aniq fanlar** va **texnologiya yo'nalishidagi** tashkilotlar ulushi **22,6 foizni**, **biznes**

va boshqaruv ta’limi yo‘nalishi 12,9 foizni, **tibbiyot, biologiya va ijtimoiy soha yo‘nalishi 9,7 foizni** tashkil etadi. **Arxitektura va san’at yo‘nalishi** hamda **xizmat ko‘rsatish va sayyohlik yo‘nalishi** ulushi **3,2 foizdan** iborat.



2-rasm. Reyestrdagi akkreditatsiya tashkilotlari ixtisoslashuv yo‘nalishlari kesimida


Manba: muallifning Reyestr ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblari.

5.3 Institutsional tajriba kesimida

Institutsional tajriba kesimida tahlil qilinganda, Reyestrga kiritilgan tashkilotlarning aksariyati uzoq yillik faoliyat tarixiga ega.

Xususan, **5 ta** tashkilot **1834–1950-yillarda**, **3 ta** tashkilot **1951–1980-yillarda**, **11 ta** tashkilot **1981–2000-yillarda**, **10 ta** tashkilot esa **2001–2010-yillarda** tashkil etilgan.

Shuningdek, **2011–2023-yillarda** tashkil etilgan **2 ta** akkreditatsiya tashkiloti Reyestr tarkibidan o‘rin olgan.



3-rasm. Reyestrdagi akkreditatsiya tashkilotlari institutsional tajriba kesimida


Manba: muallifning Reyestr ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblari.

Mazkur holat Reyestrni shakllantirishda xalqaro maydonda uzoq yillik institutsional tajriba va barqaror faoliyatga ega akkreditatsiya tashkilotlariga ustuvorlik berilganligini ko‘rsatadi.

VI. REYESTRDAGI TASHKILOTLARNING MILLIY AMALIYOTDAGI NATIJALARI

Reyestrning amaliy samaradorligi undan oliy ta’lim tashkilotlari tomonidan foydalanish darajasi orqali namoyon bo‘ladi.

Hozirgi kunga qadar Reyestrga kiritilgan **ACQUIN**, **ASIIN** va **UNWTO TedQual** tashkilotlari ishtirokida **9 ta oliy ta’lim tashkilotining** jami **61 ta ta’lim dasturi** xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan. 2026-yil 30-iyun holatiga.



4-rasm. Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlar soni oliy ta’lim tashkilotlari kesimida

Manba: Muallifning Reyestr ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblari.


O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF–21-son Farmoniga muvofiq, oliy ta’lim tashkilotlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim dasturlari sonini **2026-yilda 133 taga**, **2030-yilga** qadar esa **200 taga** yetkazish vazifasi belgilangan.

Tahlil natijalari xalqaro akkreditatsiya amaliyoti ayrim oliy ta’lim tashkilotlarida nisbatan faol shakllanganini ko‘rsatadi. Xususan, **Buxoro davlat**

universiteti (18 ta dastur) va **Andijon davlat universiteti** (11 ta dastur) jami akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim dasturlarining **47,5 foizini** tashkil etadi.

Qolgan 7 ta oliy ta’lim tashkilotida xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlar soni **2 tadan 6 tagacha** bo‘lib, ular orasida **Toshkent davlat texnika universiteti** ham **4 ta ta’lim dasturi** bilan mazkur jarayonga qo‘shilgan.

Mazkur natijalar xalqaro akkreditatsiya amaliyoti hali cheklangan doiradagi oliy ta’lim tashkilotlarida to‘planganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, yangi oliy ta’lim tashkilotlarining ushbu jarayonga bosqichma-bosqich jalb etilishi xalqaro akkreditatsiyaga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganidan dalolat beradi.



5-rasm. Xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlarning tashkilotlar bo‘yicha taqsimoti

Manba: Muallifning Reyestr ma’lumotlari asosidagi hisob-kitoblari.

Akkreditatsiya tashkilotlari kesimida **ACQUIN** yetakchi o‘rinni egallaydi. Jami **61 ta** ta’lim dasturining **39 tasi** (63,9 foizi) aynan ushbu tashkilot tomonidan akkreditatsiyadan o‘tkazilgan. Bunga ACQUINning keng qamrovli akkreditatsiya xizmatlarini taqdim etuvchi umumiy profildagi tashkilot ekanligi sabab bo‘lgan.

ASIIN orqali akkreditatsiyadan o‘tgan dasturlar ulushi **32,8 foizni** tashkil etadi. Tashkilotning faoliyati muhandislik, axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar yo‘nalishlariga qaratilganligi uning amaliy qo‘llanilishida ham o‘z aksini topgan.

UNWTO TedQual esa turizm yoʻnalishidagi **2 ta** taʼlim dasturini akkreditatsiyadan oʻtkazgan. Garchi ulushi kichik boʻlsa-da, bu Reyestrdagi tor ixtisoslashgan akkreditatsiya tashkilotlaridan amaliyotda foydalanishning mavjudligini koʻrsatadi.

Hozirgi holatda Reyestrga kiritilgan **31 ta** akkreditatsiya tashkilotidan faqat **3 tasi**, yaʼni **9,7 foizi**, oliy taʼlim tashkilotlari tomonidan amalda jalb etilgan.

Mazkur koʻrsatkich Reyestrning mavjud salohiyatidan hali toʻliq foydalanilmayotganini koʻrsatadi.

Bu holat avvalgi bobda keltirilgan sohaviy tarkib tahlili bilan ham uygʻunlik kasb etadi. Xususan, amaliyotda foydalanilgan akkreditatsiya tashkilotlarining asosiy qismi umumiy profildagi yoki muhandislik yoʻnalishiga ixtisoslashgan boʻlib, biznes, sogʻliqni saqlash, arxitektura hamda boshqa yoʻnalishlarda faoliyat yurituvchi xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari imkoniyatlari hozircha yetarli darajada ishga solinmagan.

Shu nuqtai nazardan, Reyestrning amaliy samaradorligini oshirish nafaqat xalqaro akkreditatsiya loyihalari sonini koʻpaytirish, balki oliy taʼlim tashkilotlarining Reyestr tarkibidagi turli ixtisoslashuvga ega akkreditatsiya tashkilotlari va ularning imkoniyatlari toʻgʻrisidagi xabardorligini kengaytirishni ham talab etadi.

Bu esa Reyestr salohiyatidan yanada samarali foydalanish, xalqaro akkreditatsiya amaliyotini kengaytirish hamda taʼlim yoʻnalishlari kesimida muvozanatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

VII. REYESTRNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

O‘tkazilgan tahlillar O‘zbekistonda xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini shakllantirish va yuritish bo‘yicha zarur huquqiy hamda institutsional asoslar yaratilganini ko‘rsatadi. Biroq, Reyestrni yanada takomillashtirish va uning amaliy samaradorligini oshirish bo‘yicha foydalanilmagan imkoniyatlar ham mavjud.

Birinchidan, Reyestrning geografik qamrovi xalqaro xususiyatga ega bo‘lib, bugungi kunda **13 ta** davlatning akkreditatsiya tashkilotlarini birlashtiradi. Bunda, Reyestr tarkibida Yevropa mamlakatlari tashkilotlari ustunlik qiladi.

Shu sababli, kelgusida Osiyo hamda boshqa mintaqalardagi xalqaro e’tirof etilgan akkreditatsiya tashkilotlarini jalb etish geografik muvozanatni ta’minlash va xalqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, Reyestr turli ixtisoslashuv yo‘nalishlarini qamrab olgan bo‘lsa-da, ayrim sohalarda faoliyatni kengaytirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xususan, qishloq xo‘jaligi, muhandislik, tibbiyot, san’at hamda zamonaviy texnologiyalar yo‘nalishlarida faoliyat yurituvchi xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini Reyestrga kiritish uning sohaviy diversifikatsiyasini kuchaytiradi hamda oliy ta’lim tashkilotlari uchun tanlov imkoniyatlarini kengaytiradi.

Uchinchidan, Reyestrga kiritilgan akkreditatsiya tashkilotlari faoliyati yuzasidan oliy ta’lim tashkilotlarining xabardorligini oshirish zarurati mavjud.

Bu borada oliy ta’lim tashkilotlari bilan targ‘ibot uchrashuvlarini hamda Reyestrdagi akkreditatsiya tashkilotlari tomonidan turli seminarlarni o‘tkazishni ko‘paytirish lozim.

Natijada, oliy ta’lim tashkilotlari Reyestrdagi akkreditatsiya tashkilotlari haqida batafsil ma’lumotga ega bo‘ladi va ularning ta’lim dasturlarini nufuzli akkreditatsiya tashkilotlaridan o‘tkazish orqali xalqaro tan olinishiga erishiladi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrining shakllantirilishi ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida rivojlantirishga qaratilgan muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Reyestr xalqaro akkreditatsiya tashkilotlarini yagona mezonlar asosida saralash, ularning faoliyatini tartibga solish hamda oliy ta’lim tashkilotlari uchun ishonchli va xalqaro miqyosda e’tirof etilgan hamkorlarni tanlash imkonini yaratadi.

O‘tkazilgan tahlillar Reyestrni yuritish bo‘yicha zarur huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilganini hamda uning xalqaro sifatni ta’minlash tizimi bilan uyg‘unlashuvini ta’minlaydigan mexanizmlar joriy etilganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Reyestrni yanada takomillashtirish, uning amaliy qo‘llanilishini kengaytirish va xalqaro hamkorlik ko‘lamini rivojlantirish istiqbollari mavjud.

Kelgusida Reyestrning geografik va sohaviy qamrovini kengaytirish, boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish, monitoring tizimini takomillashtirish hamda OTTlarning undan samarali foydalanishini qo‘llab-quvvatlash Reyestrning amaliy samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Reyestrni izchil rivojlantirish O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining xalqaro sifatni ta’minlash makoniga integratsiyasini chuqurlashtirish, xalqaro akkreditatsiya amaliyotini kengaytirish hamda ta’lim sifatini ta’minlash tizimining ochiqligi, ishonchliligi va xalqaro e’tirofini yanada mustahkamlash uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

I. Milliy normativ va statistik manbalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025 – yil 6 avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan O‘rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizom.

2. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim sifatini ta’minlash milliy agentligi. O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestrini yuritish hamda ularning ta’lim dasturlarini akkreditatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha faoliyatini monitoring qilish tartibi to‘g‘risida nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2026 – yil 13 fevralda 3774-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

3. O‘zbekiston Respublikasida tan olinadigan xalqaro, xorijiy va nodavlat akkreditatsiya tashkilotlari reyestri

URL: https://nqaae.uz/uz/international-accreditation

II. Xalqaro manbalar

4. QS Quacquarelli Symonds. *QS World University Rankings*.


URL: https://www.topuniversities.com/world-university-rankings

1-ilova

Reyestr mezonlari bo‘yicha akkreditatsiya tashkilotlari tahlili

(2026-yil 30-iyun holatiga)

Ushbu ilovada Reyestrga kiritilgan xalqaro akkreditatsiya tashkilotlari belgilangan mezonlar asosida tahlil qilingan. Jadvalda har bir tashkilotning tashkil etilgan yili, joylashgan davlati, akkreditatsiyadan o‘tkazgan QS Top-300 oliy ta’lim tashkilotlari, rasmiy veb-sayti hamda INQAAHE, ENQA, APQN, CHEA, ENAEE kabi xalqaro ta’lim sifatini ta’minlash tarmoqlari va kelishuvlarga a’zoligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar jamlangan. Ilova Reyestrga kiritilgan tashkilotlarning xalqaro nufuzi, tajribasi va institutsional salohiyatini qiyosiy baholash imkonini beradi.



03 ABEEK

Accreditation Board for Engineering Education of Korea

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1999	Janubiy Koreya	www.abeek.or.kr/abeek/accreditation

Xalqaro tarmoqlar
IEA: Washington Accord, Sydney Accord, Dublin Accord, Seoul Accord, NABEEA

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Seoul National University	#31	o'rin
KAIST University	#53	o'rin
Korea University	#67	o'rin
Yonsei University	#56	o'rin
Hanyang University	#162	o'rin

04 ABET

Accreditation Board for Engineering and Technology

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1932	AQSH	www.abet.org

Xalqaro tarmoqlar
INQAAHE, IEA: Washington Accord, Sydney Accord, Dublin Accord, Seoul Accord

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

MIT	#1	o'rin
Stanford	#6	o'rin
Pennsylvania State University	#89	o'rin
Johns Hopkins University	#28	o'rin
University of Maine	#301	o'rin

05 ACCUA

Agency for Scientific and University Quality of Andalusia

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2023	Ispaniya	ws262.juntadeandalucia.es/accua

Xalqaro tarmoqlar
INQAAHE, ENQA

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Complutense University of Madrid	#164	o'rin
Universitat de Barcelona	#165	o'rin
Universitat Autònoma de Barcelona	#175	o'rin
Universidad Autónoma de Madrid	#198	o'rin
University of Navarra	#249	o'rin

06 ACQUIN

Accreditation, Certification & Quality Assurance Institute

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2001	Germaniya	www.acquin.org

Xalqaro tarmoqlar
ENQA, INQAAHE

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Technical University of Munich	#28 o‘rin	Freie Universität Berlin	#97 o‘rin
Ludwig-Maximilians-Universität München	#59 o‘rin	RWTH Aachen University	#99 o‘rin
Technische Universität Dresden	#234 o‘rin		

07 AHPGS

Accreditation Agency in Health and Social Sciences

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2001	Germaniya	www.ahpgs.de/en

Xalqaro tarmoqlar
ENQA, German Accreditation Council va Swiss Accreditation Council tomonidan vakolat (avtorizatsiyaga) ega

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Universität München	#59 o‘rin	Aachen University	#106 o‘rin
Albert-Ludwigs-Universitaet Freiburg	#212 o‘rin	Universität Bonn	#227 o‘rin
Maastricht University	#230 o‘rin		

08 AMBA

Association of MBAs

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1967	Buyuk Britaniya	www.associationofmbas.com

Xalqaro tarmoqlar
AMBA va BGA global MBA hamda postgraduate management ta’limi bo‘yicha akkreditatsiya/a’zolik tarmog‘i

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Imperial College London	#2 o‘rin	University of Cambridge	#5 o‘rin
University of Miami	#78 o‘rin	University of Manchester	#32 o‘rin
Technical University of Munich	#37 o‘rin		

09 AQU

AQU
Catalan University Quality Assurance Agency

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1996	Ispaniya	www.aqu.cat

Xalqaro tarmoqlar: **INQAAHE, WFME, GAIN, ENQA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Trinity College Dublin, The University of Dublin	#87 o'rin		Utrecht University	#105 o'rin	
Leiden University	#141 o'rin		Politecnico di Torino	#241 o'rin	
University of Bergen	#291 o'rin				

10 ASIIN

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1999	Germaniya	www.asiin.de.en

Xalqaro tarmoqlar: **INQAAHE, ENQA, ENAEE/EUR-ACE Label**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

University of Hong Kong	#26 o'rin		University of Melbourne	#114 o'rin	
RWTH Aachen University	#106 o'rin		Technical University of Munich	#28 o'rin	
Karlsruhe Institute of Technology	#102 o'rin				

11 CAMPEP

CAMPEP
Commission on Accreditation of Medical Physics Education Programs

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1994	AQSH	campep.org/default.asp

Xalqaro tarmoqlar: **CHEA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Harvard University	#4 o'rin		Stanford University	#6 o'rin	
University of Chicago	#21 o'rin		Johns Hopkins University	#32 o'rin	
Duke University	#61 o'rin				

12 CTI

Engineering Degree Commission

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1934	Fransiya	www.cti-commission.fr/en

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA, ENAEE, ECA, FrAQ-Sup**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

Sorbonne University	#59 o'rin	Federal Institute of Technology Lausanne	#36 o'rin
Ghent University	#159 o'rin	Institut Polytechnique de Paris	#46 o'rin
Université Paris-Saclay	#73 o'rin		

13 EAEVE

European Association of Establishments for Veterinary Education

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1988	Fransiya	www.eaeve.org

Xalqaro tarmoqlar: **IAWG, ENQA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

University of Copenhagen	#107 o'rin	University of Milan	#276 o'rin
University of Padova	#219 o'rin	University of Liverpool	#165 o'rin
University of Edinburgh	#27 o'rin		

14 EQUIS

EFMD Global Quality Improvement System

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1997	Belgiya	www.efmdglobal.org

Xalqaro tarmoqlar: **EFMD Global tarkibidagi EQUIS xalqaro biznes maktablari sifatini baholash/akkreditatsiya tizimi**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

University of Melbourne	#13 o'rin	Tsinghua University	#20 o'rin
Frankfurt School of Finance and Management	#43 o'rin	Nanyang Technological University	#26 o'rin
Politecnico de Milano	#123 o'rin		

15 EVALAG

Evaluation Agency Baden-Württemberg

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2000	Germaniya	www.evalag.de/en

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA, INQAAHE, DeGEval**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Ruprecht Karl University of Heidelberg	#80	o'rin
Karlsruhe Institute of Technology	#98	o'rin
Albert-Ludwigs-Universität Freiburg	#201	o'rin
Eberhard Karls Universität Tübingen	#222	o'rin

16 FIBAA

Foundation for International Business Administration Accreditation

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1994	Germaniya	www.fibaa.org/en

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA, INQAAHE**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

RWTH Aachen University	#105	o'rin
Technische Universität Berlin	#145	o'rin
Erasmus University Rotterdam	#158	o'rin
Technische Universität Wien	#190	o'rin
University of Applied Science Bonn	#239	o'rin

17 HCERES

High Council for Evaluation of Research and Higher Education

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2013	Fransiya	www.hceres.fr/fr

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Université PSL	#24	o'rin
Sorbonne University	#63	o'rin
Qatar University	#122	o'rin
Stockholm University	#128	o'rin
University of Lisbon	#260	o'rin

18 NVAO

NVAO
Accreditation Organisation of the Netherlands and Flanders

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2005	**Niderlandiya**	**www.nvao.net/en**

Xalqaro tarmoqlar
INQAAHE, ENQA

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Delft University of Technology	**#49** o'rin	
University of Amsterdam	**#55** o'rin	
Utrecht University	**#105** o'rin	
Eindhoven University of Technology	**#136** o'rin	
Leiden University	**#141** o'rin	

19 PKA

PKA
Polish Accreditation Committee

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2002	**Polsha**	**pka.edu.pl/en/home-page**

Xalqaro tarmoqlar
ENQA, CEENQA, ECA va INQAAHE

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

University of Edinburgh	**#27** o'rin	
Freie Universitaet Berlin	**#97** o'rin	
University of Zurich	**#109** o'rin	
University of Warsaw	**#258** o'rin	
Université Paris 1 Panthéon-Sorbonne	**#283** o'rin	

20 QAA

QAA
Quality Assurance Agency for Higher Education

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1997	**Buyuk Britaniya**	**www.qaa.ac.uk**

Xalqaro tarmoqlar
ENQA, INQAAHE, CIQG

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Swansea University	**#298** o'rin	
Cardiff University	**#186** o'rin	
King's College London	**#40** o'rin	
University of Leeds	**#82** o'rin	
University of Edinburgh	**#27** o'rin	

21 RSC
Royal Society of Chemistry

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1980	Buyuk Britaniya	www.rsc.org.uk

Xalqaro tarmoqlar
EASPA

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

IMPERIAL	Imperial College London	#2 o‘rin	UNIVERSITY OF OXFORD	University of Oxford	#3 o‘rin
NUS National University of Singapore	National University of Singapore	#10 o‘rin		University of Melbourne	#50 o‘rin
cityu City University of Hong Kong	City University of Hong Kong	#62 o‘rin			

22 RIBA
Royal Institute of British Architects

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1834	Buyuk Britaniya	www.architecture.com

Xalqaro tarmoqlar
RIBA arxitektura ta’limi bo‘yicha professional organ; RIBA Validation tizimi; UNESCO-UIA Validation System operatori

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

UNIVERSITY OF CAMBRIDGE	University of Cambridge	#6 o‘rin	UCL	University College London	#8 o‘rin
MANCHESTER 1824 The University of Manchester	The University of Manchester	#40 o‘rin	University of Sheffield	The University of Sheffield	#82 o‘rin
CARDIFF UNIVERSITY PRIFYSGOL CAERDYDD	Cardiff University	#180 o‘rin			

23 RSB
Royal Society of Biology

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2009	Buyuk Britaniya	www.rsb.org.uk

Xalqaro tarmoqlar
ISEAL Alliance, Science Based Targets Network (SBTN) hamda Renewable and Low-Carbon Fuels (RLCF) Value Chain Industrial Alliance a’zosi

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

World University Rankings

UNIVERSITY OF OXFORD	University of Oxford	#3 o‘rin		University of Hong Kong	#17 o‘rin
THE UNIVERSITY of EDINBURGH	University of Edinburgh	#27 o‘rin	MANCHESTER 1824 The University of Manchester	University of Manchester	#34 o‘rin
Durham University	Durham University	#89 o‘rin			

24 ZEvA

Central Evaluation and Accreditation Agency

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1995	Germaniya	www.zeva.org/en/agency/contact

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA, ECA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Freie Universitaet Berlin	#97 o'rin	RWTH Aachen University	#106 o'rin
Technische Universität Berlin	#145 o'rin	Albert-Ludwigs-Universität Freiburg	#201 o'rin
Technical University of Darmstadt	#253 o'rin		

25 A3ES

Agency for assessment and accreditation of higher education

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2007	Portugaliya	a3es.pt/en/a3es-en

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA, CIQG**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Aalto University	#113 o'rin	Erasmus University Rotterdam	#158 o'rin
University of Porto	#278 o'rin	University of Lisbon	#260 o'rin

26 MQA

Malaysian Qualifications Agency

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2007	Malayziya	www.mqa.gov.my

Xalqaro tarmoqlar: **INQAAHE, APQN**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Universiti Malaya (UM)	#60 o'rin	Universiti Teknologi Malaysia	#181 o'rin
UCSI University	#265 o'rin	Universiti Teknologi PETRONAS (UTP)	#269 o'rin

27 IOMP

International Organization for Medical Physics

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1963	Buyuk Britaniya	www.iomp.org

Xalqaro tarmoqlar
IAEA

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

KAIST – Korea Advanced Institute of Science & Technology	#53 o‘rin	
The Hong Kong Polytechnic University	#57 o‘rin	
Yonsei University	#56 o‘rin	

28 UNWTO TedQual

United Nations World Tourism Organisation Tourism Education Quality

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1998	Ispaniya	www.untourism.int/unwto-tedqual-certification-system

Xalqaro tarmoqlar
UN Tourism Academy tarkibidagi UN Tourism TedQual Certification System – turizm ta’limi va o‘quv dasturlari bo‘yicha xalqaro sifat sertifikatlashtirish tizimi

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

University of Queensland	#43 o‘rin	
University of Bologna	#138 o‘rin	
George Washington University	#285 o‘rin	

29 Unibasq

Agency for Quality of the Basque University System

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2004	Ispaniya	www.unibasq.eus/en

Xalqaro tarmoqlar
ENQA, INQAAHE, ECA

Akkreditatsiyadan o‘tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

University of Southampton	#80 o‘rin	
University of Porto	#278 o‘rin	
Uppsala University	#103 o‘rin	

30 AQAS

AQAS
Agency for Quality Assurance through Accreditation of Study Programs

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
2002	Germaniya	www.aqas.de

Xalqaro tarmoqlar: **ENQA**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

Technical University of Munich (TUM)	#25 o'rin		Ludwig-Maximilians-Universität München (LMU)	#61 o'rin	
Universität Heidelberg	#86 o'rin		Freie Universität Berlin	#98 o'rin	
RWTH Aachen University	#104 o'rin				

31

JUAA
Japan University Accreditation Association

Tashkil etilgan yili	Davlat	Veb-sayt
1947	Yaponiya	www.juaa.or.jp

Xalqaro tarmoqlar: **INQAAHE, APQN, CHEA International Quality Group (CIQG)**

Akkreditatsiyadan o'tkazgan TOP-300 (QS 2025) OTTlar

QS World University Rankings

The University of Tokyo	#32 o'rin		Kyoto University	#50 o'rin	
Osaka University	#86 o'rin		Tohoku University	#107 o'rin	
Nagoya University	#152 o'rin				

2-ilova

Akkreditatsiya tashkilotlarining ixtisoslashuv yo‘nalishlari kesimidagi ro‘yxati





CTI

IOMP

RSC

Biznes va boshqaruv ta’limi — 4 ta

AACSB

AMBA & BGA

EFMD-EQUIS

FIBAA

Tibbiyot, biologiya va ijtimoiy soha — 3 ta

AHPGS

EAEVE

RSB

Arxitektura va san’at — 1 ta

RIBA

Xizmat ko‘rsatish va sayyohlik — 1 ta

UNWTO TedQual

3-ilova

O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlarining xalqaro akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim dasturlari ro‘yxati

Buxoro davlat universiteti

18 ta dastur

ACQUIN
Accreditation, Certification & Quality Assurance Institute

Iqtisodiyot	Bakalavr	Magistratura
Buxgalteriya	Bakalavr	Magistratura
Moliya va moliyaviy texnologiyalar	Bakalavr	
Yurisprudensiya	Bakalavr	
Biologiya	Bakalavr	Magistratura
Kimyo	Bakalavr	Magistratura
Fizika	Bakalavr	Magistratura
Matematika	Bakalavr	Magistratura
Amaliy matematika	Bakalavr	Magistratura

UNWTO TedQual
United Nations World Tourism Organisation Tourism Education Quality

Turizm	Bakalavr	Magistratura

Andijon davlat universiteti

11 ta dastur

ACQUIN
Accreditation, Certification & Quality Assurance Institute

Yarimo'tkazgichlar fizikasi		Magistratura
Kimyo	Bakalavr	Magistratura
Axborot xavfsizligi	Bakalavr	Magistratura
Biologiya	Bakalavr	Magistratura
Matematika	Bakalavr	Magistratura
Iqtisodiyot	Bakalavr	
Fizika	Bakalavr	

Urganch davlat universiteti

6 ta dastur

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Amaliy matematika	Bakalavr	
Matematika	Bakalavr	Magistratura
Matematik injiniring		Magistratura
Fizika	Bakalavr	Magistratura

Navoiy davlat universiteti

6 ta dastur

ACQUIN
Accreditation, Certification & Quality Assurance Institute

Biologiya	Bakalavr	Magistratura
Matematika	Bakalavr	Magistratura
Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)	Bakalavr	Magistratura

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

6 ta dastur

ACQUIN
Accreditation, Certification & Quality Assurance Institute

Kimyo muhandisligi	Bakalavr	
Kimyoviy texnologiya		Magistratura
Konchilik muhandisligi	Bakalavr	
Foydali qazilma konlarini qazib olish		Magistratura
Metallurgiya muhandisligi	Bakalavr	
Metallurgiya		Magistratura

Jizzax davlat pedagogika universiteti

4 ta dastur

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Kimyo ta’limi	Bakalavr
Biologiya ta’limi	Bakalavr
Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (kimyo)	Magistratura
Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (biologiya)	Magistratura

Urganch RANCH texnologiya universiteti

4 ta dastur

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Logistika (avtomobil transporti)	Bakalavr
Texnologik mashinalar va jihozlar	Bakalavr
Transport vositalari muhandisligi (avtomobil transporti bo‘yicha)	Bakalavr
Mashinasozlik texnologiyasi	Magistratura

Toshkent davlat texnika universiteti

4 ta dastur

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Axborot tizimlari va texnologiyalari	Bakalavr
Metrologiya va standartlashtirish	Bakalavr
Intellektual muhandislik tizimlari	Magistratura
Metrologiya, standartlashtirish va sifat menejmenti	Magistratura

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

2 ta dastur

ASIIN
Akkreditierungsagentur für Studiengänge der Ingenieurwissenschaften, der Informatik, der Naturwissenschaften und der Mathematik e.V.

Davolash ishi	Bakalavr
Pediatriya	Bakalavr

Muallif *Abduraxmonova Ruxsora Sobir qizi*
Lavozimi*: Strategik rivojlantirish va xalqaro hamkorlik guruhi rahbari*

Muallif: *Tanbayev Ozod Nurmamat o‘g‘li*
Lavozimi*: Strategik rivojlantirish va xalqaro hamkorlik guruhi bosh inspektori*

NATIONAL QUALITY ASSURANCE AGENCY FOR EDUCATION

NQAAE

UNDER THE ADMINISTRATION OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

+998 55 505 30 30

info@nqaae.uz
www.nqaae.uz

@nqaaeuz

@nqaaeuzbot

